



**UZOQ MUDDATLI DAVOLANISHGA MUHTOJ BOLALARNI ÒQITISHDA TA'LIM
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.**

Inogamova Dिल्фуза Raxmatullayevna.

*Nizomiy nomidagi O'zMPU. "Surdopedagogika
va maxsus pedagogikaning klinik asoslari"
kafedrası professori, (PhD).*

Vorisova Zuhra Raufovna

*Nizomiy nomidagi O'zMPU. "Surdopedagogika
va maxsus pedagogikaning klinik asoslari"
kafedrası magistranti*

Annotatsiya: Maqolada hozirgi kunda uzoq davolanishga muhtoj kasl bolalarning o'qitish tizimidagi olib borilayotgan islohatlar va yangiliklar hamda Onkologiya, gematologiya va immunologiya markazi qoshidagi "Mehrli maktab"da bolalarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: kasalxona pedagogikasi, onkologik kasal bolalar, zamonaviy texnologiyalar, pedagogik yordam, terapevtik pedagogika, g'amxo'rlik maktabi.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ДЕТЕЙ,
НУЖДАЮЩИХСЯ В ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ.**

Иногамова Дилфуза Рахматуллаевна

*Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами.
Профессор кафедры Сурдopedagogiki и клинических основ специальной педагогики, (PhD).*

Ворисова Зухра Рауфовна

*Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами.
Магистрант кафедры Сурдopedagogiki и клинических основ специальной педагогики.*

Аннотация: В статье ведется речь о текущих реформах и нововведениях в системе обучения больных детей, нуждающихся в длительном лечении, а также об особенностях обучения детей в школе «Мехрли мактаб» организованного в Центре онкологии, гематологии и иммунологии.

Ключевые слова: госпитальная педагогика, онкологические дети, современные технологии, педагогическое сопровождение, терапевтическая педагогика, школа-интернат.

**USE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING CHILDREN IN NEED OF
LONG-TERM TREATMENT.**

Inogamova Dिल्фуза Rakhmatullayevna

*Nizami Tashkent State Pedagogical University.
Professor of the Department of Surdopedagogogy and Clinical Foundations of Special Pedagogogy,
(PhD).*

Vorisova Zuhra Raufovna

*Nizami Tashkent State Pedagogical University.
Master's student of the Department of Surdopedagogogy and Clinical Foundations of Special
Pedagogogy.*

Abstract: The article discusses current reforms and innovations in the education system for sick children in need of long-term treatment, as well as the features of teaching children at the Mehrli Maktab school, organized at the Center for Oncology, Hematology and Immunology.

Key words: hospital pedagogy, children with cancer, modern technologies, pedagogical support, therapeutic pedagogy, boarding school.



Kirish. Hozirgi kunda Respublikamizda maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab-internatlar mavjud bo'lib, ushbu ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Ammo ko'plab sabablarga ko'ra ayrim uzoq muddatli davolanishga muhtoj, kasalligi tufayli darslarga qatnasha olmayotgan bolalar uyda yakka tartibda o'qishmoqda yoki ayrimlari esa batamom ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar.

Ayniqsa “onkologik bolalalar kasalligi (saraton)” atamasi bemorlarning yosh guruhlari tomonidan belgilanadigan noyob saraton turlarining keng spektrini o'z ichiga oladi. Bolalardagi onkologiya ko'pincha genetik omil, tug'ma kasalliklar va tashqi muhitning salbiy ta'siri bilan bog'liq. Kasallikning rivojlanishiga ota-onaning chekishi, radiatsiya ta'siri, shuningdek, quyosh nurining salbiy ta'siri kabi omillar sabab bo'lib kelmoqda.

Asosiy qisim. Bugungi kunda yuqori daromadli mamlakatlarda bolalarda saraton kasalligining 80% dan ortig'i davolanadi buni biz rus olimi, professor A.G.Rumyantsevaning so'zlarida ko'rishimiz mumkin. Yaxshilangan davolash usullari va bemorlarni to'g'ri boshqarish tufayli saraton tashxisi endi bolalar va o'smirlar uchun o'lim jazosi emas[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-maydagi “Aholiga gematologik va onkologik xizmat ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PQ 5130-son qarori qabul qilindi[2] va qoida tariqasida, saraton kasalligini davolash paytida bola maktabga borishni davom ettirishi mumkinligi va maktab bolaga normal sharoitni yaratib, uning his-tuyg'usini qaytarishga yordam berishi xaqida gapirildi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, uzoq muddat davolangan paytida maktabda o'qigan hamda omon qolgan bemor bolalarda, uyda ta'lim olgan bolalarga nisbatan kommunikativ qobiliyati, o'ziga bo'lgan ishonchi, muloqot qilish qobiliyati yqoriroq va ta'lim olishda muammolari kamroq bo'ladi. Har bir holat o'ziga xosdir[3]. Saraton — uzoq muddatli kasallik bo'lib, davolanish tashxisiga qarab bir necha haftadan ikki yoki undan ko'proq yilgacha davom etishi mumkin.

Bugungi kunda O'zbekistonda Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi “Mehrli maktab” davlat ta'lim muassasasi faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu maktab uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatadi. Maktabda ta'lim muhitini yaratishda ota-onalarning ishtiroki va ular bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Chunki, uzoq muddat davolanishda bo'lgan bolalar doimiy ravishda, asosan, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar hamrohligida bo'ladi.

Uzoq muddatli kasalliklar bolaning ta'lim jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Davolanish jarayoni, shifoxonalarga borish, cheklangan jismoniy faoliyat va ijtimoiy hayotning pasayishi bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishini va o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirishi mumkin. Ushbu qiyinchiliklarni yengish va bolaning o'qish jarayonini davom ettirishi uchun ota-onalar bilan hamkorlik muhimdir. Davolanayotganlar tibbiyot muassasalarida bo'lib turgan vaqtda davolovchi shifokor xulosasiga ko'ra ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar (keyingi o'rinlarda — otaonalar) roziligi bilan umumiy o'rta ta'limga jalb qilinadi. Bunda, o'quvchilar davolanishga kelgan kundan boshlab uch kun mobaynida davolovchi shifokorning umumiy o'rta ta'limga jalb etish bo'yicha xulosasi beriladi.

Ta'lim berishda bolaning sog'lig'i, intellektual va jismoniy imkoniyatlari hisobga olinadi. Bolalar kasalliklariga qarab kichik guruhlarda yoki yakka tartibda o'qishadi.

Kasalxonada uzoq muddatli davolanayotgan bolalar uchun ta'lim muhitini yaratishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, turli darajadagi nogironligi bo'lgan bolalardan (aqliy zaif bolalar, autizm spektrining buzilishi, hissiy buzilishlari bo'lgan bolalar) farq qilib, ta'limning turli usullaridan



keg foydalanish mumkin. Bu talabalarda o'quv jarayonini tashkil etishning samarali usullarini doimiy ravishda izlashda o'qituvchi faoliyati haqida tasavvurni shakllantirishga imkon beradi va bugungi kunda kasbiy kompetentsiyaning eng muhim shartiga aylanib borayotgan turli xil texnologiyalarni o'zlashtirishga yordam beradi. Ta'lim muassasalarida alohida ta'limga muhtoj bolalarning ta'limini qo'llab-quvvatlash texnologiyalarini joriy etilishini taqazo qiladi.

Ta'lim texnologiyasi – bu ta'lim jarayonini yaxshilash, o'qitish va o'rganishni samaraliroq qilish uchun texnologiyalarni, vositalarni va usullarni birlashtirishdir, bu esa o'quvchilar uchun turli xil ta'lim muhitini yaratadi, bilimlarni uzatishni osonlashtiradi va ta'limni boshqarish tizimlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Zamonaviy texnologiyalar deganda, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan, o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan va raqamli axborot vositalariga asoslangan texnik va dasturiy vositalar tushuniladi[4].

Bunday texnologiyalar quyidagi asosiy guruhlariga ajratiladi:

1. *Smart-texnologiyalar* – bu intellektual tizimlar bo'lib, ular o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashadi. Masalan, smart doskalar, aqlli sinflar, mobil ilovalar (Kahoot, Photomath) yordamida darslar interaktiv va o'zaro aloqadorlikka asoslanadi. Aqlli sinflarda har bir o'quvchi o'z tempida mustaqil ishlash imkoniga ega bo'ladi.

2. *Interaktiv vositalar* – bu ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faol aloqani ta'minlovchi vositalardir. Interaktiv doskalar, tajriba simulyatorlari, elektron testlar o'quvchini faollikka chorlaydi. Ular bilimni chuqurroq o'zlashtirish va tahlil qilishga yordam beradi.

3. *Onlayn platformalar* – bu ta'limning masofaviy va aralash (blended learning) shakllarida keng qo'llaniladi. Moodle, Google Classroom, Zoom, Edmodo, Coursera kabi platformalar o'qituvchi, o'quvchi va ota-ona o'rtasidagi muloqotni kuchaytiradi. Shuningdek, ular topshiriqlarni tarqatish, baholash va tahlil qilishda qulaylik yaratadi.

4. *Bulutli texnologiyalar* – o'quv materiallarini saqlash, almashish va tahrirlash imkonini beruvchi xizmatlardir. Google Drive, OneDrive kabi tizimlar hammualliflikda ishlashni soddalashtiradi. O'quvchilarning birgalikda loyihalar bajarishi va guruhli ta'lim tashkil etish uchun ayniqsa foydalidir

5. *Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari* (VR/AR) – bu texnologiyalar real tajribaning simulyatsiyasini yaratadi. Masalan, biologiya yoki fizika fanida 3D modellar orqali murakkab tushunchalarni ko'rgazmali tarzda o'rganish mumkin. Ular orqali fazoviy tasavvur, tasdiqlovchi tajriba o'tkazish va ilg'or ilmiy yondashuvlar osonlashtiriladi.

6. *Sun'iy intellekt tizimlari* – bu o'quvchilar uchun shaxsiylashtirilgan ta'lim muhitini yaratadi. SI tizimlari o'quvchining xatolarini aniqlab, avtomatik tahlil qiladi va zarur ko'rsatmalar beradi. ChatGPT, Grammarly, Khanmigo kabi tizimlar o'quvchilarning savollariga real vaqt rejimida javob berib, bilimni mustahkamlashga ko'maklashadi.

Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

- O'quvchilar bilimga faol va mustaqil tarzda ega bo'ladi;
- O'qituvchi pedagogik uslubini diversifikatsiya qiladi;
- Bilim darajasi va o'zlashtirish tezligi aniq monitoring qilinadi;
- Innovatsion yondashuv asosida tanqidiy va ijodiy fikrlash rivojlanadi.

Shu bilan birga, texnologiyalarni ta'limga joriy etishda qator muammolar ham mavjud. Infratuzilma yetishmovchiligi, o'qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasi, zamonaviy



resurslarning o'zbek tilida kamligi kabi omillar texnologiyalardan to'laonli foydalanishni cheklab qo'yadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, uzoq muddatli davolanayotgan bolalarning kasalliklari haqidagi ma'lum bilimlar nafaqat o'qituvchiga, kasal bolaga, balki ularning ota-onalariga ham to'g'ri yo'lni topishga yordam beradi. Uzoq muddatli kasalliklarga duch kelgan bolalar uchun ta'lim muhitini yaratishda ota-onalar bilan hamkorlik muhimdir. O'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi samarali aloqa, bolaning ehtiyojlarini aniqlash, o'quv jarayonini moslashtirish va bolaning ruhiy va ijtimoiy farovonligini qo'llab-quvvatlash bolaning o'qish jarayonini muvaffaqiyatli davom ettirishga yordam beradi. Undan tashqari bunday bolalarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan va innovatsion yondashuv asosida tashkil qilishda muhim omildir. Smart-texnologiyalar, interaktiv vositalar, onlayn platformalar, sun'iy intellekt tizimlari va boshqa raqamli echimlar o'quvchilarning faolligi, mustaqil ishlashi va ijodiy fikrlashini shakllantirishda beqiyos rol o'ynaydi. Kelajakda raqobatbardosh, axborotga asoslangan jamiyatni shakllantirish uchun aynan ana shunday texnologik yondashuvlar zaruriy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni tizimli, metodik va strategik yondashuv asosida amalga oshirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. С.В.Шариков, А.С.Обухов, В.В.Вагарина, А.А.Филатова. «Профессионально-личностные позиции педагогов госпитальных школ». Журнал "Педагогика", 2020. Т. 84. №10. Москва.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-maydagi "Aholiga gematologik va onkologik xizmat ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ 5130-son qarori.
3. Inogamova D.R. «Uzoq muddatli davolanayotgan kasal bolalarga ta'lim berishda "Gospital pedagogika" fanining ahamiyati». TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTLARI 2023/ 10 – SON.
4. Yusupov I., (2022). Raqamli pedagogika va innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: TDPU nashriyoti.